

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TABIIY FANLAR FAKULTETI



Google
scholar

doi  **Crossref**
zenodo

**TABIIY FANLAR: YANGI YONDASHUVLAR
VA DOLZARB TADQIQOTLAR**

*Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya
2024 yilning 18-19-oktyabr*

**ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ: НОВЫЕ ПОДХОДЫ И
АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**

*Международная научно-практическая конференция
18-19 октября 2024 года*

**NATURAL SCIENCES: NEW APPROACHES AND ACTUAL
RESEARCHES**

*International scientific and practical conference
October 18-19, 2024*

“Tabiiy fanlar: yangi yondashuvlar va dolzarb tadqiqotlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2024.- 478 bet.

Mazkur to‘plamda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida 2024 yil 18-19-oktyabr kunlari bo‘lib o‘tgan “Tabiiy fanlar: yangi yondashuvlar va dolzarb tadqiqotlar” mavzusida tashkil etilgan Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ilmiy maqola materiallari o‘rin olgan. Konferensiyaning I qismida “Geografiya, geoeкологиya, atrof-muhit muhofazasiga innovatsion yondashuvlar”, “Geografik ta’lim-tarbiyagayangicha uondoshuv”, “Ekologiya fani va ta’limida innovatsion tadqiqotlar” masalalarini qamrab olgan.

Mazkur to‘plam geograf, ekolog va iqtisodchi mutaxassislar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar hamda geografiya faniga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plamda berilgan maqolalarning ilmiyligi, mazmuni va keltirilgan statistik ma’lumotlarga mualliflar mas’ul.

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI:

N.R.Alimkulov -	g.f.d. (DSc), prof. v.b.
A.B.Rasulov -	g.f.f.d. (PhD), dots.
A.N.Xodjimatov -	g.f.n., professor
A.Nizamov-	g-m.f.n., prof. v.b.
I.X.Abdullayev -	g.f.n., dots.
N.I.Safarova-	g.f.n., dots.
U.X.Safarov -	p.f.n., dots.
Z.A.Amanbayeva-	g.f.n., dots.
Sh.A.Xolmurodov -	g.f.f.d. (PhD), dots.
M.K.Qalandarova -	p.f.f.d. (PhD), dots.
D.N.Abdullayeva -	p.f.f.d. (PhD), dots.
A.B.Janzakov -	p.f.f.d. (PhD), dots.
F.R.Saydamatov -	p.f.f.d. (PhD), dotsent
I.N.Islomov -	g.f.f.d. (PhD), dots. v.b.,
A.R.Matnazarov -	g.f.f.d. (PhD), dots. v.b.,
M.Sh.Xidirov -	g.f.f.d. (PhD), dots. v.b.,
N.B.Sultonova -	dots.
N.M.Karakulov -	dots. v.b.
S.E.Baymuradova -	O‘qituvchi
A.J.Risbekov -	O‘qituvchi

Maqolalarning umumiy tahriri g.f.f.d. (PhD), dotsent Sh.A.Xolmurodov tomonidan amalga oshirilgan.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2024 yil 18-19-oktyabr.

бузилиши ва ўсимлик ҳамда унга боғлиқ ҳолда ҳайвонот дунёсининг ҳам ўзгаришига олиб келади.

Демак, грунт сувлари режимининг ўзгариши сув таъминоти, қурилиш ва иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари учун муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Шунинг учун ҳам Сардоба сув омбори атрофида кўплаб гидрологик станция ва постлар ташкил қилиш лозим.

Умуман олганда илмий тадқиқот жараёнида Сардоба сув омборидаги сув ҳажмидаги тебранишлар, сувнинг қирим-чиқим баланси, сув омборнинг гидрокимёвий режимидаги ўзгаришлар, тузлар таркиби ва уларнинг сувга боғлиқ ҳолда ўзгариб туриши, сув омборнинг атроф ҳудудлар ер ости сувларига таъсири, микроиклимга таъсири, сув омбори атрофларида сув омбор таъсири туфайли рўй бераётган табиий географик жараёнлар (қирғоқ емирилиши, ботқоқланиш, шўрланиш, захланиш, чўкиш ва бошқ.) ўсимлик ва ҳайвонот оламининг ўраб турган ҳудудларга таъсири ва умуман ҳудудни комплекс равишда ўрганиш киради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алибеков Л.А., Нишонов С.А. Природные условия и ресурсы Джиззакской области. Ташкент. «Ўзбекистан». 1978 г.
2. Л.Алибеков Ўрта Осиё табиий географияси // Тошкент: Ўқитувчи 2006 й 88 б.
3. Л.Алибеков. Инсон ва табиат. Т.: Фан ва технологиялар 2020. 188 б.
4. Abdullayev H.A., Abdurahmonov A. Sho'rlangan tuproqlar va ularning melioratsiyasi. T., 1989.
5. Axmedov A.U., Abdullayev S.A., Parpiyev G.T. Tuproqlarning Meliorativ holati. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining sug'oriladigan tuproqlari. Monografiyasi. – Toshkent.: O'zRFA. Fan, 2005. V-bob. -122-157 b.
6. Сабитова Н.И. Основы экологии. – Т.: Университет. 2007. -180 с
7. Yo'ldoshev G'., Karimova S., G'oziyev M. Sho'rlangan tuproqlar melioratsiyasi. T., 1998

Ibroimov Sh.I.*

(Chirchiq, O'zbekiston)

KOLLEKTOR HAVZALARINING PARAGENETIK PEDOTIZIMLARI HAMDA ULARNING MELIORATIV SHAROITI

Annotatsiya: Maqolada landshaftlarini tadqiq qilishda bir-biridan tubdan farq qiladigan majmualarning guruhleri keltirib o'tilgan bo'lib, sug'oriladigan hududlar bilan sug'orilmaydigan hududlardagi farqlarni relyef plastikasi usuli asosida o'zgarib borishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: kollektor havzasi, tuproq qoplam strukturasi, kichik delta, relyef plastikasi, tuproqlarning meliorativ holati.

*Ibroimov Sherzod Ibroim o'g'li – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Geografiya kafedrası dotsenti v.b., g.f.f.d. (PhD).

**ПАРАГЕНЕТИЧЕСКИЕ
ПЕДОСИСТЕМЫ КОЛЛЕКТОРНЫХ
БАССЕЙНОВ И ИХ МЕЛИОРАТИВНЫЕ
УСЛОВИЯ**

Аннотация: При изучении ландшафтов в статье выделяются группы комплексов, принципиально отличающиеся друг от друга, а также выделяются различия между орошаемыми и неорошаемыми территориями по методу пластика рельефа.

Ключевые слова: бассейн коллектора, структура почвенного покрова, мелкие дельты, пластики рельефа, мелиоративное состояние.

**PARAGENETIC PEDOSYSTEM OF
COLLECTOR BASINS AND THEIR
RECLAMATION CONDITIONS**

Abstract: When studying landscapes, the article identifies groups of complexes that are fundamentally different from each other, and also highlights the differences between irrigated and non-irrigated areas based on the plasticity of the relief.

Keywords: collector basin, soil cover structure, small deltas, relief plastics, reclamation status.

Har qanday hududning landshaftlarini tadqiq qilishda bir-biridan tubdan farq qiladigan majmualarning guruhlarini ajratish mumkin: regional majmualar, tipologik majmualar va paragenetik majmualar. Geografiya fanidagi regional va tipologik majmualar tushunchalari paragenetik landshaft majmuasi tushunchasiga qaraganda uzoq qo'llanish davriga ega. Fandagi regional tushunchasini eng avvalambor L.S.Berg (1947) qo'llagan bo'lsa, undan so'ng bu tushunchani A.A.Grigoryev (1957), S.V.Kalesnik (1959), A.T.Isachenko (1965), N.A.Solnsev (1949), K.I.Gerenchuk, N.I.Mixaylov va boshqalar qo'llab quvvatlaganlar. Tipologik tushunchani S.S.Neustruyev, B.B.Polinovning ilmiy ishlarida uchratish mumkin. K.K.Markov (1951) tabiiy geografiyani shunday ta'riflaydi: "Bu fan geografik muhit va joyning tiplari – geografik landshaftlar haqidagi fandir". Tipologik majmualarni N.A.Gvozdetskiy (1958), V.M.Chupaxin (1959), N.A.Kogay (1959) va boshqalar o'zlarining tadqiqotlarida ko'p qulaydilar.

Paragenetik landshaft majmuasi tushunchasini F.N.Milkov ilk bor 1966 yilda "Paragenetik landshaft majmualari" nomli maqolasida fanga kiritgan. Shu davrdan boshlab hozirgi kunga qadar landshaftshunoslik fanida keng qo'llanilib kelinmoqda. Olim paragenetik landshaft majmualari deganda morfologik birliklarning (urochisha va joy tiplari) fazoviy o'zaro bog'langan tizimi, o'zining kelib chiqishining umumiyliги bilan bog'langan tabiiy tizimni tushunadi. Paragenetik landshaft majmualarini tabiatda ajratgan asosiy e'tiborni paragenetik aloqadorlikka qaratgan, ya'ni paragenetik aloqadorlik – bu genetik aloqadorlik, ular fazoviy o'zaro bog'langan landshaft majmualariga xos bo'lib, umumiy hosil bo'lish sharoitiga ega (Milkov, 1966).

Hozirgi vaqtda tabiiy geografiyada uch yondashish mavjuddir, bular tipologik, genetik va funksional (Reteyum, 1975). Shulardan tipologik yondashish asosan landshaftshunoslikda, genetik yondashish umumiy yer bilimida va landshaftshunoslikdagi tabiiy geografik rayonlashtirish muammosida keng qo'llanilib kelinmoqda. Funksional yondashish esa A.Y.Reteyum (1975) so'zi bilan aytganda

geotizimlarni tadqiq qilishda qo'llanilib kelinmoqda. F.N.Milkov daryo havzalarini tabiatda eng ko'p tarqalgan paragenetik landshaft majmuasi deb qaragan.

O'zbekistonda paragenetik landshaft majmalarini tadqiq qilish A.Abdulqosimov nomi bilan bog'liq. U o'zining "O'rta Osiyoning hozirgi landshaftlardagi paragenetik aloqadorlikni tahlili" (1993) nomli maqolasida tog' botiqlardagi paragenetik aloqadorliklar landshaftlarning xillariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi va buning natijasida xilma-xil landshaftlar hosil bo'ladi degan xulosaga keladi. Q.S.Yarashev (2018, 2022) o'zining tadqiqotlarida Janubiy O'zbekiston daryo havzalarining paragenetik landshaft komplekslarini tadqiq qiladi hamda ularning natijalarini landshaft-ekologik rayonlashtirishda asos qilib oladi.

A.K.Urazbayev (2002, 2021) sug'oriladigan hududlardagi kollektor havzalarini geotizim deb tadqiq qiladi. Tabiiy geografiya fanida tizimli usulning keng qo'llanilishi natijasida funksional yondashish daryo havzalaridagi urochishe tiplarining majmualarini tadqiq qilishda qo'llanilmoqda. Ammo kollektor havzalaridagi paragenetik landshaft komplekslarining yoki B.B.Polinov so'zi bilan aytganda elementar landshaftlarning paragenetik aloqadorligi relyef plastikasi usuli asosida deyarli tadqiq qilinmagan.

Amudaryo hozirgi deltasining sug'oriladigan hududlarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, sug'oriladigan hududlarda ham kollektorlar o'zlarining havzalariga egadir, ya'ni kollektor havzasidagi tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimi o'ziga xos funksional yaxlitlikka ega bo'lgan geotizimni hosil qiladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, kollektor havzasining chegarasi A.K.Urazbayevning (2002) fikri bo'yicha, doimo yer usti suv oqimining chegarasi bilan to'liq mos keladi, ya'ni tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimining faoliyati natijasida vujudga keladigan kollektor havzasi o'ziga xos funksional yaxlitlikka ega bo'lib, u o'zining ichki strukturasi bilan boshqa kollektor havzalaridan tubdan farq qiladi. Kollektor havzasining daryo havzasidan asosiy farqi shundaki, daryo havzasi tabiatni o'zi in'om qilgan obykti bo'lsa, kollektor havzasi esa insonning mehnati natijasida hosil bo'lgan geotizimdir. Ammo bu ikki havzada ham yer usti suv oqimining jarayoniga bog'liq holda havzalarda ro'y beradigan tabiiy geografik jarayonlar obyektning ichki strukturasi bilan bog'langan bo'lib, tizimli holda havzalarning yuqori qismidan quyi qismi tomon o'zgarib boradi. [2]

Funksional yondashishda asosiy e'tibor landshaft yoki urochisha tiplari orasidagi o'zaro aloqadorlikni vujudga keltiruvchi modda va energiyaning harakatiga qaratiladi. Daryo yoki kollektor havzalaridagi modda va energiyaning ko'chib yurishiga sabab bo'luvchi yer usti suv oqimiga katta e'tibor beriladi. Ana shu yer usti suv oqimi orqali landshaft yoki urochisha tiplari orasida aloqadorlik vujudga keladi. Ma'lumki, yer usti suv oqimining geografik komplekslarning hosil bo'lishidagi katta rol o'ynashi 1948 yilda S.D.Muraveyskiy tomonidan asoslab berildi.

Relyef plastikasi usuli ham funksional yondashishning nazariyasiga har tomonlama amal qilgan holda kollektor havzalaridagi paragenetik landshaft komplekslarini tadqiq qilishda yer usti suv oqimining rolga katta e'tibor beradi. Relyef plastikasi usuli deganda, avvalambor topografik kartalardagi gorizontal chiziqlar asosida relyefning ikki elementini, ya'ni balandliklar va pastliklarni ko'rsatishni tushunamiz. Ana shu relyef plastikasi kartasidagi balandliklar va pastliklarning bir-biri bilan birikuvi havzani hosil qiladi. Shuning uchun ham ba'zi hollarda relyef plastikasi usulini "havzaviy" usul deb ham atashadi. Qisqa qilib aytganda, balandliklar va pastliklarning o'zaro birikuvining natijasida hosil bo'ladigan "havza"larni biz funksional yondashishning nazariyasiga asoslangan holda geotizim deb atashamizga asos bor (Urazbayev, Ibroimov, 2022), ya'ni geotizimni hosil qiluvchi yer usti suv oqimining harakati balandliklar va pastliklar bilan chambarchas bog'liqdir. Yirik masshtabli relyef plastikasi kartasida asosiy e'tibor relyef tiplarini emas, balki relyef strukturasini ko'rsatib berishga qaratiladi. Ana shu relyefning ichki tuzilishi havzadagi tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimining strukturasini, ya'ni havzaviy ichki tuzilishini belgilab beradi. Yer usti suv oqimining strukturasiga bog'liq holda paragenetik landshaft komplekslari orasidagi paragenetik aloqadorlik kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. [1]

Relyef plastikasi usuli paragenetik landshaft komplekslarini tadqiq qilishda bir tomondan funksional yondashishning nazariyasiga e'tibor bersa, ikkinchi tomondan esa V.B.Sochava (1978) asos solgan geotizim ta'limotiga e'tibor beradi. Har bir kollektor havzasi geotizim hosil qilgan holda boshqa kollektor havzalaridan o'zining ichki tuzilishi bo'yicha keskin farq qiladi. Shuning uchun ham tizimli yondashuvda obyektning strukturasini tadqiq qilishda katta e'tibor beriladi. Keyinchalik uning tizim ekanligi dala ma'lumotlari asosida isbotlanadi. Obyektning strukturasini tadqiq qilganda biz asosiy e'tiborni elementlar (balandlik va pastliklar) orasidagi o'zaro munosabatlarga qaratmog'imiz lozim. Obyektning ichki strukturasini bir tomondan paragenetik landshaft komplekslarining hususiyatini belgilab bersa, ikkinchi tomondan paragenetik aloqadorlikni ham belgilab beradi. Ba'zi hollarda relyef plastikasi kartasini "oqimlar" kartasi deb ham atashadi. Sabab, bu yerda faqatgina relyef strukturasini ko'rsatib qolmasdan, balki shu bilan birga "oqimlar" strukturasini ham tasvirlanadi. Hozirgi davrgacha tabiatda mavjud bo'lgan paragenetik landshaft komplekslarini o'rganishda asosiy e'tiborni dala sharoitida urochisha tiplarini ajratishga va ular o'rtasidagi aloqadorlikni tadqiq qilishga asosiy e'tibor qaratilgan. Biz ham paragenetik landshaft komplekslarini dala sharoitida ajratishga qo'shilgan holda ekspeditsiyaga chiqishdan avval tadqiq qilinadigan kollektor havzasining relyef plastikasi kartasini topografik kartalar asosida kartalashtirishni taklif etamiz. Relyef plastikasi kartasida ko'rsatilgan har xil kattalikdagi kollektor havzalari dala sharoitida

paragenetik landshaft komplekslarini ajratish uchun ham ilmiy, ham amaliy asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibroimov Sh.I. Amudaryo hozirgi deltasi yer resurslarining tabiiy-meliortiv sharoitini baholash. Monografiya. –T.: “Ma’rifat”, 2024.
2. Urazbayev A.K., Ibroimov Sh.I. Amudaryo hozirgi deltasining daraxtsimon va paragenetik landshaft komplekslari. Monografiya. –T.: “Ma’rifat”, 2024.

Jumayev X.X., Turayev T.A.*
(Qarshi, O'zbekiston)

**TURISTIK-REKREATIONS FAOLIYATNI TADQIQ QILISH VA
UNING IJTIMOY-IQTISODIY GEOGRAFIK JIHLARI**

Annotatsiya: Ushbu maqola turizmning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni, uning rivojlanishi, turistik oqim, turizm va rekreations faoliyatni tadqiq qilish, uning nazariy-amaliy jihatlari, turizm va rekreationsining ijtimoiy va iqtisodiy geografik jihatlari, turistik-rekreations resurslari va ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlari: WTTC, turizm-rekreations faoliti, arxitektura, tarixiy yodgorliklar, iqtisodiy, etnografiya, infratuzilma.

**ИССЛЕДОВАНИЕ ТУРИСТО-
РЕКРЕАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЕЕ
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ
ГЕОГРАФИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ**

Аннотация: В данной статье описаны роль туризма в мировой экономике, его развитие, турпотоки, исследование туристско-рекреационной деятельности, ее теоретические и практические аспекты, социально-экономико-географические аспекты туризма и отдыха, туристско-рекреационные ресурсы и их значение в мировой экономике. экономику страны.

Ключевые слова: WTTC, туристско-рекреационная деятельность, архитектура, исторические памятники, экономика, этнография, инфраструктура.

**STUDY OF TOURIST AND
RECREATIONAL ACTIVITIES AND ITS SOCIO-
ECONOMIC GEOGRAPHICAL ASPECTS**

Abstract: This article describes the role of tourism in the global economy, its development, tourist flows, research of tourism and recreational activities, its theoretical and practical aspects, socio-economic and geographical aspects of tourism and recreation, tourism and recreational resources and their importance in the global economy. economy of the country.

Keywords: WTTC, tourism and recreation activities, architecture, historical monuments, economy, ethnography, infrastructure.

Hozirgi davrda turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi jabhalaridan biriga aylandi. 2024 yilda jahon iqtisodiyotining turizmdan tushgan daromadi avvalgi ko'rsatkichlardan 770 milliard dollarga oshishini bashorat qilmoqda. Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) yillik hisobotiga ko'ra, turizm sanoati 2024 yilda jahon yalpi ichki mahsulotiga rekord darajadagi 11 trillion dollar hissa qo'shadi. WTTC ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda butun dunyo bo'ylab sarflangan har 10

*Jumayev Xayrulla Xayitovich – Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrasi dotsenti., g.f.f.d. (PhD). jumayevgeog@mail.ru;

Turayev Tohir Abdumomin o'g'li - Qarshi davlat universiteti, 1-kurs magistranti. tohirturayev0526@gmail.com

Буранов Ё.Р., Облакулов Ҳ.А. - <i>Шаҳар атрофи хўжалигининг ривожланишида хориж тажрибаси.....</i>	83
Do'stnazarov D. – <i>Ohangaron vodiysi o'simlik dunyosidagi ko'p yillik o'zgarishlarni tadqiq qilishning zamonaviy usullari.....</i>	87
Двинских С.А., Оськина М.А. – <i>Методический подход к оценке водопользования предприятий с позиции устойчивого развития.....</i>	92
Egamberdiyeva U.T., Ismoilov A.R. – <i>Uchqo'rg'on tumani qishloq xo'jaligi rivojlanishida agroiklim resurslarining tutgan o'rni.....</i>	95
G'o'dalov M.R. Qosimov N.D. – <i>Sangzor daryo havzasi hududidagi daryolar va ularning oqim tartiblariga ajratilishi.....</i>	99
Ibragimov L., Boboyev Sh., Barotova G., Sulaymonov Sh. – <i>Geografik tadqiqlarda qishloq aholisi bandligini o'rganishning ilmiy-nazariy masalalari.....</i>	103
Ибрагимов С. - <i>Мирзачўл табиий-географик районини ўзлаштириши билан боғлиқ геоэкологик муаммолар.....</i>	108
Ibroimov Sh.I. – <i>Kollektor havzalarining paragenetik pedotizimlari hamda ularning meliorativ sharoiti.....</i>	114
Jumayev X.X., Turayev T.A. – <i>Turistik-rekreatsioon faoliyatni tadqiq qilish va uning ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatlari.....</i>	118
Жумалиев Н.Э., Солпуева Д.Т., Аблешов Т.А., Бактыбек К.Н., Кожогелдиев Т.А. – <i>Современное состояние населения Кыргызской Республики.....</i>	122
Jumayeva M.B. – <i>Tabiiy geografik obyekt nomlarining tasniflashi va guruhlashtirish masalalari.....</i>	127
Karakulov N.M., Muminova Y.N., Ahmadjonov H.B., Abdug'aniyev X.X. – <i>Toshkent viloyatida kambagallikni kamaytirishda Turkiya tajribasi</i>	131
Мамажонов М. – <i>Андижон шаҳрига табиий географик тавсиф.....</i>	139
Matnazarov A.R., Xolbo'tayev A.N., Toshpo'latova S.Q., Xudayberdiyeva X.R. – <i>O'zbekistonda glyatsioturizm yo'nalishlarini tashkil etish imkoniyatlari.....</i>	145
Mirzamahmudov O.T. – <i>Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirishning geografik xususiyatlari.....</i>	149
Mirzayeva A.Z. – <i>Jizzax viloyatidagi turistik-rekreatsiya resurslarining turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati.....</i>	155
Nasullayeva K.SH. – <i>Qorako'l vohasi tabiiy geografik komplekslari, tarkibi va ularning qishloq xo'jalik maqsadlarida o'rganilishi.....</i>	158
Nazarov M.G – <i>Agrolandshaftlar haqida tushuncha mazmuni mohiyati...</i>	161
Nizamov A. – <i>Aralash holdagi oqim hisobiga faoliyat yurituvchi qadimgi gidrotexnik inshootlar.....</i>	166
Nizamov A. – <i>Suvni yer sirtiga chiqarish – yuzalatish ahamiyatiga ega bo'lgan qadimgi gidrotexnik inshootlar.....</i>	170
Nizamov A. – <i>Yer osti suv zahirasini boyitish, suvni singdirish ahamiyatiga ega bo'lgan qadimgi gidrotexnik inshootlar turi</i>	173
Ochilov F.E., Egamberdieva M.M. – <i>Kitob tumani aholisi va uning joylashuv xususiyatlari.....</i>	177